



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
IV-QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASSTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQUV VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna Sharipov Kongratbay Avezimbetovich THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	51
Kurbonova Ma'mura Abdulkarim qizi TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI	55
Qaraev Anvar Botirovich THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI	79
Abdulla Mavlonov QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	82
Komekova Gulzira Sharbaevna	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	87
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	93
Azamatova G. I.	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARINING XARAJAT-FOYDA TAHLILI	98
Omonov Olim Murodullayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	104
Isxakova Sarvar Ayubovna	
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН)	109
Жанайдарова Камола Абаевна	
INVESTITSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHDA IPO VA KORPORATIV OBLIGATSIYALAR SAMARADORLIGI	115
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
O'ZBEKISTON TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARNING AHAMIYATI	120
Usmanova Zumrad Islamovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI	123
Nuraliyeva Komila Sanaqulovna	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	130
Utkirova Jasmina Jasur qizi	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI	135
Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI	141
Xakimov D.R.	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ	151
Эркинбаева Камила Жавлонбековна	
TIJORAT BANKLARI MOLİYAVIY RESURLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	156
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODEL VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI	162
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	171
Jalalova Dildora Jamolovna	
КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	174
Лана Цхай	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLİYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI	181
G'oziyeva Moxira Rustam qizi	



TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK SAMARADORLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	189
Yuldashova Yoqutoy	
KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RAQAMLI KREDITLASHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	193
Karimova Aziza Maxomadrizoyevna	
Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li	
SANOAT TARMOQLARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA KONSEPSIYASINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MAZMUNI	199
Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРИЯ, ОТРАСЛЕВАЯ СПЕЦИФИКА И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ.....	204
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
ENHANCING GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE LESSONS FROM DEVELOPED ECONOMIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT	210
Xolmurodova Durdona Otamurod qizi	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	218
Саттарова Зухра Илхомовна	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIIY INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI	224
Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li	
HUDUDIIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	229
Mamadaliyev Doniyorbek Shuhratbek o'g'li	
TOSHKENTDA KICHIK BIZNES KORXONALARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI: LOGIT VA PROBIT MODELLARI ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL	235
Hasan Ibragimov	
Mannonov Shahzod	
Toshmurod Qulmanov	
MOSLASHUVCHAN MENEJMENT VA UNING SIFAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI	242
Ibroximova Zuhra Baxtiyor qizi	
IJTIMOIIY SOHANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIIY XUSUSIYATLARI	247
Ro'zmetov Kamol Ibodullayevich	
Ibragimov Qayumbek Ikromovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI	254
Muminov Bekzod Polvonovich	
KORPORATIV AXBOROT TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH KONSEPSIYASINING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIIY YONDASHUVLAR TASNIFI.....	263
Kuchkarov Ulug'bek Tahirovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MINTAQALARIDA EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Abdulatifova Moxinur Alisher qizi	
FIZIKA FANINI SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI ASOSIDA SAMARALI O'QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	275
Razzoqov I.D.	
RAQAMLI MEHNAT BOZORLARI VA IQTISODIY BARQARORLIK: O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON MISOLIDA QIYOSIIY TAHLIL	281
Safarova Gulruh Akmal qizi	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КАТЕГОРИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ И НАУЧНЫЙ	



ПОДХОД К ЕЁ ОПРЕДЕЛЕНИЮ.....	287
Зайналов Ж. Р.	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MAMLAKAT	
IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....	293
Xolmatova Mumtozbegin Alisherxon qizi	
TURISTIK BOZOR KONYUNKTURASINI O'RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY	
JIHATLARI.....	298
Usmanova Zumrad Islamovna	
PREPARATION OF NUT JAM USING MULBERRY SYRUP BASED	
ON ITS CONSUMER PROPERTIES.....	302
Pardaev Gayrat Yakhshibaevich	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MEROS OBYEKTLARINING TURISTIK SIG'IM	
IMKONIYATLARI.....	306
Tolibova Shaxrizoda	
КОМПЛЕКСНЫЙ НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОТЧЕТ: ТРАНСФОРМАЦИЯ, ФИНАНСОВАЯ	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ СТРАХОВОГО РЫНКА	
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	314
Махмудов Комолиддин Розметович	
SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT IN DEVELOPING COUNTRIES: THE	
SYNERGY OF INVESTMENT, AGRICULTURAL TRANSFORMATION, AND	
ENVIRONMENTAL POLICY.....	319
Kholmukhamedova Feruza	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA EKSPORT OPERATSIYALARINI MOLIYAVIY	
QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	324
Mir Axmadova Mariyam Nosir Axmadovna	
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЛИКВИДНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ	
СУБЪЕКТОВ В РУСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	330
Бауетдинов Мажит Жанызакович	
Жанызакова Шахноза Мажит кызы	
FEATURES AND WAYS OF FURTHER DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY.....	338
Kobilov Alisher	
Majidova Irodahon	
RAQAMLI UNIVERSITET MODELI — BARQAROR OLIY TA'LIMNING	
MUHIM OMILI SIFATIDA.....	346
Nazirova Komola Raximjon qizi	
HUDUD EKSPORTINING XOM ASHYOGA BOG'LIQLIGI: MOLIYAVIY OQIBATLAR VA	
BARTARAF ETISH YO'LLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	352
Norturayev Mansurbek Obid o'g'li	
MOLIYA BOZORINING IQTISODIY O'SISHDAGI O'RNI VA	
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	359
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Miryunusov Avaz Iqboljon o'g'li	
ECONOMIC FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE EFFICIENCY OF	
INNOVATIVE SERVICES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	363
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
KORXONA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY	
YONDASHUVLARI.....	368
Shodmanov Toshtemir Ro'ziyevich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BOZOR MEKANIZMLARINING	
NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI VA ULARNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI.....	372
Amonova Nazokat O'tkurovna	



ЭКОНОМИКА АВТОМАТИЗАЦИИ КАК ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ МЕНЯЮТ СТРУКТУРУ ЗАТРАТ И БИЗНЕС-МОДЕЛИ	378
Ли Д.Э.	
KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIGA TATBIQ ETISH YO'NALISHLARI.....	382
Bozorov Jasurbek Panji o'g'li	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	387
Tashxodjayev Abdurasul Abdulmansurovich	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INVESTITSIYA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: NAZARIY ASOSLAR VA EMPIRIK TAHLIL.....	395
Abdig'aniyeva S.M.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	401
Raxmanov Furqat Temirovich	
BANKLARDA SUG'URTA FAOLIYATINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	407
Isayeva Xolbibibi Boboqulovna	
Ziyatova Sitara Baxtiyor qizi	
BANKLARDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA AXBOROT RISKLARINI BOSHQARISH	413
Eshqobilov Ahmad Javlijevich	
MAMLAKAT INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O'RNI	418
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlatgeldi qizi	



DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI

Raxmanov Furqat Temirovich

O'zbekiston Respublikasi Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi

Annotatsiya: Maqolada davlat xaridlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning boshqaruv, raqobat va korrupsiyaga qarshi ahamiyati tahlil qilinadi. Narxlar modulining avtomatik hisoblash, manbalarni baholash, risklarni aniqlash va qaror qabul qilishda inson mas'uliyatini saqlash bilan bog'liq ilmiy-amaliy masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, narxlar moduli, komplaens, davlat xaridlari, hisobdorlik.

Abstract: The article examines the governance, competition and anti-corruption implications of using artificial intelligence in public procurement pricing. It analyzes automated calculation, source assessment, risk detection and the need to preserve human accountability when applying price modules in procurement decisions.

Keywords: artificial intelligence, price module, compliance, public procurement, accountability

Аннотация: В статье рассматриваются управленческие, конкурентные и антикоррупционные аспекты применения искусственного интеллекта при формировании цен в государственных закупках. Анализируются автоматический расчет, оценка источников, выявление рисков и сохранение ответственности человека при использовании ценового модуля.

Ключевые слова: искусственный интеллект, ценовой модуль, комплаенс, государственные закупки, подотчетность

KIRISH

Davlat xaridlarini raqamlashtirishning navbatdagi bosqichi axborotni elektron shaklda qabul qilish bilan cheklanib qolmay, ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish, xavflarni oldindan aniqlash va qaror qabul qilish jarayonini dalillar bilan ta'minlashni talab etmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ana shu ehtiyojga javob beradigan vositalardan biri hisoblanadi. Davlat xaridlarida narxlar modulining sun'iy intellekt asosida ishlashi xarid predmetlari bo'yicha o'rtacha bozor narxini avtomatik aniqlash, narxlar dinamikasini kuzatish, manbalar soni va sifatini baholash hamda davlat buyurtmachisiga tahliliy ma'lumot berish imkonini yaratadi.

Bunday mexanizmning dolzarbligi bir nechta omil bilan izohlanadi. Birinchidan, davlat xaridlari bozorida narx ma'lumotlari turli manbalarda tarqoq holda mavjud. Ikkinchidan, har bir buyurtmachi tomonidan narxni alohida o'rganish ko'p vaqt va ma'muriy resurs talab qiladi. Uchinchidan, manbalarni tanlashda subyektivlik saqlanib qolsa, korrupsiyaviy xavflar to'liq bartaraf etilmaydi. To'rtinchidan, yuqori takrorlanuvchi tovarlar bo'yicha avtomatik tahlil davlat boshqaruvida profilaktik nazoratni kuchaytirish imkonini beradi. Maqolaning maqsadi sun'iy intellektga asoslangan narxlar modulini davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish, raqobatni kuchaytirish, mablag'lardan oqilona foydalanish va korrupsiyaga qarshi komplaensni ta'minlash nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda avtomatlashtirish afzalliklari bilan birga algoritmik xatolar, ma'lumotlar sifati, inson mas'uliyati va huquqiy kafolatlar masalalariga ham e'tibor qaratiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellektni davlat boshqaruvida qo'llash bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda ikki xil yondashuv mavjud. Birinchi yondashuv raqamli texnologiyalarni davlat xizmatlarini tezlashtirish, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va resurslarni optimal taqsimlash vositasi sifatida ko'radi. Ikkinchi yondashuv esa algoritmik shaffoflik, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish, diskriminatsiya xavfi, inson nazorati va qarorlar ustidan shikoyat qilish imkoniyati kabi kafolatlarni alohida ta'kidlaydi. Davlat xaridlari sohasida har ikki yondashuvni muvozanatlashtirish zarur, chunki xarid qarorlari budget mablag'lari, tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy manfaatlari va jamoatchilik ishonchi bilan bog'liq.

OECD tavsiyalarida davlat xaridlarida halollik, ochiqlik, raqobat va risklarni boshqarish tamoyillari muhim o'rin tutadi [4]. World Bank xarid qoidalarida ham value for money, iqtisodiylik, samaradorlik, halollik va shaffoflik prinsiplari alohida belgilanadi [5]. Open Contracting yondashuvi esa ma'lumotlarni rejalashtirish, tender, shartnoma va ijro bosqichlarida bog'langan holda ochish orqali tahlil imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi [6]. Tadqiqot metodologiyasi huquqiy-tahliliy, tizimli, riskka asoslangan va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi. Tizimli tahlil orqali narxlar modulining ma'lumot manbalari, avtomatik hisoblash, e-ma'lumotnoma va xarid elektron tizimlari bilan bog'liqligi o'rganildi. Riskka asoslangan tahlil algoritmik xatolar, ma'lumotlar noto'g'riligi, manipulyatsiya va mas'uliyatning tarqalishi xavflarini baholashga qaratildi. Qiyosiy tahlil xalqaro prinsiplar va milliy amaliyotdagi ehtiyojlarni solishtirish imkonini berdi.¹

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sun'iy intellektga asoslangan narxlar moduli, eng avvalo, ma'lumotlarni yig'ish va ularni xarid predmeti xususiyatlari bilan bog'lash vazifasini bajaradi. Modul xarid predmeti tegishli ro'yxatga kiritilganini tovar nomi va yagona klassifikator kodi orqali aniqlaydi, keyin texnik, funksional, ekspluatatsion, yetkazib berish, kafolat va servis shartlarini taqqoslashga harakat qiladi [8]. Bu bosqichda asosiy ilmiy muammo — tovar nomi bilan tovarning iqtisodiy jihatdan taqqoslanuvchanligi o'rtasidagi farqdir. Bir xil nomdagi mahsulotlar turli sifat, model, xizmat muddati va qo'shimcha xarajatlarga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun modulda kodlash va xususiyatlarni tavsiflash qanchalik aniq bo'lsa, avtomatik natija shunchalik ishonchli bo'ladi.²

Modul oxirgi davrda shakllangan narx ma'lumotlaridan foydalanib o'rtacha bozor narxi, yuqori va past chegaralar, narxlar dinamikasi hamda o'zgarish koeffitsiyentini hisoblaydi. Agar ma'lumotlar yetarli bo'lmasa yoki narxlar tarqoqligi yuqori bo'lsa, natija qo'shimcha o'rganish talab qiladigan maqomda belgilanadi [8]. Bu yondashuv sun'iy intellektni yakuniy qaror qabul qiluvchi subyekt emas, balki davlat buyurtmachisiga tahliliy signal beruvchi vosita sifatida talqin qilish imkonini beradi. Korrupsiyaga qarshi komplaens nuqtai nazaridan mazkur mexanizm uchta vazifani bajaradi. Birinchisi — profilaktika: narxlar sun'iy oshirilgan yoki bozordan keskin farq qilgan holatlar avtomatik ravishda ko'rinadi. Ikkinchisi — aniqlash: bir xil tovar bo'yicha hududlar, tashkilotlar yoki davrlar kesimida g'ayritabiiy farqlar tahlil qilinadi. Uchinchisi — hisobdorlik: davlat buyurtmachisi avtomatik natijadan chetga chiqqan taqdirda, sabablarini elektron shaklda asoslashi lozim bo'ladi. Davlat boshqaruvi uchun muhim jihat shundaki, narxlar moduli ma'lumotlarni markazlashtirgan holda organlar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytiradi. Soliq hisobvara-fakturalari, bojxona ma'lumotlari, statistik ma'lumotlar, avvalgi shartnomalar, birja kotirovkalari va sohaviy reyestrlar bilan integratsiya narxning real bozorga yaqinligini baholashga xizmat qiladi [2]. Shu bilan birga, bunday integratsiya axborot xavfsizligi, ma'lumotlarning dolzarbligi va idoralararo mas'uliyat taqsimoti masalalarini ham kun tartibiga qo'yadi.³

Raqobat nuqtai nazaridan sun'iy intellektga asoslangan narx tahlili ikki tomonlama ta'sirga ega. Bir tomondan, u boshlang'ich narxni bozorga yaqinlashtirib, asossiz yuqori narxlar orqali budget mablag'larini samarasiz sarflash xavfini kamaytiradi. Ikkinchi tomondan, algoritm noto'g'ri ma'lumotlar asosida past narx tavsiya qilsa, sifatli yetkazib beruvchilar bozordan chiqib ketishi yoki shartnoma ijrosida muammolar paydo bo'lishi mumkin. Shu bois "avtomatik hisoblash" va "inson tomonidan asoslangan tekshirish" o'rtasida muvozanat bo'lishi zarur.

1 O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5382974>

2 Davlat xaridi predmetining o'rtacha bozor narxini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik shakllantirish sxemasiga oid ishchi materiallar. Toshkent, 2026.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son Farmoni "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida." <https://lex.uz/docs/7952218>



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda raqobatli xaridlar natijasida 13,9 trln so'm budget mablag'lari iqtisod qilingan. Agar sun'iy intellekt asosida narxlar tahlil qilish mexanizmi joriy etilsa, boshlang'ich narxlar bozor narxlariga yaqinlashishi hisobiga mazkur iqtisodiy samaradorlik yanada oshishi mumkin. Ayni paytda 2023-yilda 369,9 mlrd so'mlik, 2024-yilda esa 370,6 mlrd so'mlik narx oshirish holatlari aniqlangani davlat xaridlarida korrupsiyaviy xavflar hali ham saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Bu holat sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda avtomatik risk-indikatorlar, anomal narxlarni aniqlash va real vaqt rejimida monitoring tizimlarini joriy etishning dolzarbligini yanada oshiradi. Shu bilan birga, algoritmik qarorlar shaffofligi masalasi hal qilinmasa, sun'iy intellektga ishonch cheklanib qoladi. Davlat buyurtmachisi va ishtirokchilar avtomatik natija qanday manbalar, qanday vaznlar va qanday istisno qoidalari asosida shakllanganini tushuna olishi kerak. Bunda tijorat sirini himoya qilish va jamoatchilik nazorati o'rtasida muvozanat saqlanishi lozim. Manbalar nomi, manbalar soni, hisoblash sanasi, narx diapazoni va asosiy istisno sabablarini ochiq qilish yetarli minimal standart bo'lishi mumkin. Ikkinchi muhim masala — ma'lumotlar sifati. Agar oldingi shartnomalardagi narxlar o'zi asossiz yuqori bo'lgan bo'lsa, ularni kelgusi hisob-kitoblar uchun baza sifatida ishlatish "tarixiy xatoni" qayta ishlab chiqarishi mumkin. Xalqaro amaliyotda bu muammo anomal narxlarni chiqarib tashlash, manbalarni guruhlash, life-cycle cost va mustaqil bozor indikatorlaridan foydalanish orqali kamaytiriladi. Milliy sharoitda ham narxlar modulida ekstremal qiymatlarni tekshirish va manbalarni sifat bo'yicha tasniflash zarur.

Uchinchi masala — inson mas'uliyati. Davlat xaridlarida sun'iy intellekt yordamchi vosita bo'lishi kerak. Xarid predmeti xususiyatlari, ehtiyojning maqsadga muvofiqligi, sifat talablari va bozor holati bo'yicha yakuniy javobgarlik davlat buyurtmachisi zimmasida qoladi. Aks holda "tizim shunday ko'rsatdi" degan yondashuv hisobdorlikni susaytirishi mumkin. Shuning uchun avtomatik natijadan foydalanganlik yoki undan asosli ravishda chetga chiqqanlik bo'yicha elektron iz saqlanishi shart. To'rtinchi masala — raqobatga ta'sir. Narxlar moduli bozordagi ishtirokchilar uchun prognoz qilinadigan, teng va asosli muhit yaratishi lozim. Agar modul natijalari yopiq bo'lsa, tadbirkorlik subyektlari boshlang'ich narxning qanday shakllanganini tushunmaydi va shikoyatlar soni ortishi mumkin. Agar ma'lumotlar yetarli darajada ochiq bo'lsa, ishtirokchilar ham o'z takliflarini real bozor sharoitiga moslashtiradi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli xarid tizimlari faqat elektron savdo maydonchasi sifatida emas, balki ma'lumotga asoslangan boshqaruv platformasi sifatida ishlaganda yuqori samara beradi. Open Contracting Data Standard kabi standartlar ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligini, tahlilga yaroqliligini va jamoatchilik tomonidan tekshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi [6]. Shu jihatdan narxlar modulini shartnoma ijrosi, yetkazib berish sifati va keyingi baholash natijalari bilan bog'lash kelgusida muhim yo'nalish bo'lib qoladi. Muhokama natijasida sun'iy intellektning davlat xaridlaridagi roli uch darajada namoyon bo'lishi aniqlanadi: axborot darajasi — ma'lumotlarni yig'ish va tozalash; tahlil darajasi — narxlar, dinamika va xavflarni hisoblash; boshqaruv darajasi — davlat buyurtmachisining qarorini asoslash va hisobdorligini kuchaytirish. Ushbu uch daraja o'zaro bog'lansa, sun'iy intellekt korrupsiyaga qarshi kurashishda formal emas, amaliy vositaga aylanadi.

Bosqichma-bosqich joriy etish davlat buyurtmachilari malakasini oshirish bilan birga borishi kerak. Mas'ul xodimlar sun'iy intellekt natijasini qanday o'qish, qanday hollarda qo'shimcha o'rganish o'tkazish va avtomatik natijadan chetga chiqishni qanday asoslashni bilishi lozim. Raqamli tizimning samarasi inson kapitali va metodik ta'minot bilan bevosita bog'liq. Keyingi bosqichda xizmatlar va ishlar bo'yicha alohida metodik yondashuv kerak bo'ladi. Chunki xizmat narxi faqat bir birlik tovar narxiga emas, mehnat hajmi, bajarish joyi, muddat, malaka, risklar va natija ko'rsatkichlariga bog'liq. Qurilish ishlarida esa loyiha-smeta, resurslar narxi, transport xarajatlari va texnik nazorat talablari inobatga olinadi. Demak, narxlar modulida tovar, ish va xizmatlar uchun bir xil algoritm emas, differensial yondashuv shakllanishi zarur. Sun'iy intellektga asoslangan narxlar modulini barcha xarid predmetlariga bir vaqtda tatbiq etish amaliy jihatdan murakkab. Eng maqbul yo'l — ma'lumotlari ko'p, xususiyatlari nisbatan standart va takror xarid qilinadigan tovarlardan boshlashdir. Kompyuter texnikasi, maishiy uskunalar, qog'oz mahsulotlari, mebel va ayrim qurilish materiallari kabi tovarlar bo'yicha avtomatik tahlil tezroq natija beradi.

Amaliyotda bosqichma-bosqich joriy etish zarurati

Ma'lumotlar boshqaruvi davlat boshqaruvidagi hisobdorlikni ham kuchaytiradi. Agar modul qaysi ma'lumot qachon va qaysi manba orqali kelganini saqlasa, keyingi audit jarayonida xatoning sababi aniqlanadi: ma'lumot manbasidami, algoritm hisobidami yoki buyurtmachining kiritgan parametrlaridami. Bu mas'uliyatning noaniq tarqalib ketishining oldini oladi. Korrupsiyaviy xavflar faqat xarid komissiyasi yoki buyurtmachi darajasida emas, ma'lumotlar shakllanadigan manbalarda ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, bog'liq shaxslar tomonidan bir-biriga yaqin sun'iy takliflar taqdim etilishi, avvalgi asossiz yuqori shartnoma narxlarining kelgusi hisob-kitoblarda baza sifatida qo'llanilishi yoki tovar xususiyatlarining ataylab noaniq kiritilishi algoritm natijasiga ta'sir qiladi. Shuning uchun modulda anomalionalarni aniqlash, bog'liqlikni tekshirish va manbalarni filtrlash funksiyalari



muhimdir. Narxlar moduli samaradorligining markazida ma'lumotlar boshqaruvi turadi. Agar manbalar turlicha formatda, noto'liq yoki eskirgan holda kelib tushsa, algoritmnining hisob-kitobi ham ishonchli bo'lmaydi. Shu bois ma'lumotlarni kiritish, tozalash, yangilash, tasniflash va arxivlash bo'yicha aniq qoidalar mavjud bo'lishi kerak. Har bir ma'lumot manbasi uchun mas'ul organ, yangilanish davriyligi va ishonchlilik mezonini belgilanishi amaliy ahamiyatga ega.

Ma'lumotlar boshqaruvi va korrupsiyaviy xavflar

Bunda inson nazorati hal qiluvchi o'rin tutadi. Davlat buyurtmachisi avtomatik hisob-kitobni ko'r-ko'rona qabul qilmasligi, balki xarid predmetining amaliy ehtiyoji, texnik tavsifi, bozor sharoiti va shartnoma ijrosi ehtimolini baholashi kerak. Sun'iy intellektni "yordamchi tahlilchi" sifatida, davlat buyurtmachisini esa "mas'ul qaror qabul qiluvchi" sifatida belgilash hisobdorlikni saqlab qoladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan sun'iy intellekt narx ma'lumotlarini tezkor tahlil qilib, xarid predmetlari bo'yicha real bozor diapazonini shakllantirishi mumkin. Huquqiy nuqtai nazardan esa har qanday avtomatik natija tekshirilishi, izohlanishi va zarur hollarda qayta ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan tartibga ega bo'lishi lozim. Aks holda raqamli tizim shaffoflikni oshirish o'rniga qaror qabul qilishni yanada yopiqlashtirib qo'yishi mumkin. Sun'iy intellektning davlat xaridlarida qo'llanilishi boshqaruvning an'anaviy modelini o'zgartiradi. Ilgari narxni asoslashda asosiy e'tibor mas'ul xodim to'plagan hujjatlarga qaratilgan bo'lsa, endi ma'lumotlarning elektron manbalari, algoritmnining hisoblash logikasi va avtomatik signallar ham qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli algoritmik boshqaruvda huquqiy va iqtisodiy muvozanat saqlanishi zarur.

XULOSA

Sun'iy intellektga asoslangan narxlar moduli davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish, raqobatni kuchaytirish va mablag'lardan oqilona foydalanish uchun muhim institutsional vosita hisoblanadi. U bozor ma'lumotlarini markazlashtirish, avtomatik hisoblash, xavflarni aniqlash va e-ma'lumotnoma orqali qarorlarni hujjatlashtirish imkonini beradi. Bu holat davlat boshqaruvida dalillarga asoslangan qaror qabul qilish madaniyatini kuchaytiradi. Biroq mazkur mexanizmdan samarali foydalanish uchun algoritmik shaffoflik, ma'lumotlar sifati, inson nazorati, axborot xavfsizligi va shikoyat qilish imkoniyati ta'minlanishi lozim. Sun'iy intellekt davlat buyurtmachisining o'rnini bosmasligi, balki uning qarorini tekshiriladigan va hisobdor qilib berishi kerak. Shunda narxlar moduli korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish, raqobatni sog'lomlashtirish va davlat mablag'larining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

TAKLIFLAR

1. Narxlar modulida avtomatik hisoblash natijasi bilan birga manbalar soni, hisoblash sanasi, narx diapazoni va asosiy parametrlar majburiy ravishda ko'rsatilishi lozim.
2. Algoritm natijalari bo'yicha "tushuntiriladigan sun'iy intellekt" tamoyili joriy etilib, davlat buyurtmachisi va nazorat organlari uchun hisoblash logikasining asosiy qoidalari ochiq bo'lishi kerak.
3. Ma'lumotlar sifati past, manbalar yetarli emas yoki narxlar tarqoqligi yuqori bo'lgan hollarda modul avtomatik tarzda qo'shimcha o'rganish talab qiladigan maqomni belgilashi zarur.
4. Avtomatik natijadan chetga chiqish holatlarida davlat buyurtmachisi tomonidan sabablar, xarid predmeti xususiyatlari va bozor sharoitlari bo'yicha asoslantirish kiritish majburiyati belgilanishi maqsadga muvofiq.
5. Narxlar modulining ma'lumotlar bazasi muntazam auditdan o'tkazilib, ekstremal, takroriy, bog'liq yoki taqqoslanmaydigan narx manbalarini aniqlash mexanizmi yaratilishi kerak.
6. Sun'iy intellekt natijalari ustidan shikoyat qilish va qayta ko'rib chiqish uchun elektron tartib ishlab chiqilib, tadbirkorlik subyektlari uchun tushunarli izoh berish amaliyoti joriy etilishi lozim.
7. Narxlar moduli ma'lumotlari xarid shartnomasi ijrosi, tovar sifati va yetkazib berish natijalari bilan bog'lanib, keyingi xaridlar uchun dinamik tahlil bazasiga aylantirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5382974>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son Farmoni "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida." <https://lex.uz/docs/7952218>



3. OECD. Recommendation of the Council on Artificial Intelligence. Paris, 2019.
4. OECD. Recommendation of the Council on Public Procurement. Paris, 2015.
5. World Bank. Procurement Regulations for IPF Borrowers. Washington, D.C., 2023.
6. Open Contracting Partnership. Open Contracting Data Standard: Documentation and Guidance. 2024.
7. UNCITRAL Model Law on Public Procurement. United Nations Commission on International Trade Law. Vienna, 2011.
8. Davlat xaridi predmetining o'rtacha bozor narxini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida avtomatik shakllantirish sxemasiga oid ishchi materiallar. Toshkent, 2026.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>